



---

## FACTORS THAT BREAK THE PURITY OF SPEECH

Durdona Ro'ziyeva<sup>1</sup>

*Termiz State University*

---

### KEYWORDS

Jargons, vulgarisms,  
dialectisms, concellarisms,  
parasitic lexemes, purity of  
speech

### ABSTRACT

In the modern process of globalization, the demand for learning foreign languages is growing among young people. This, of course, does not prevent our native language from showing its influence. That is, it manifests itself on the streets, in work processes, in educational institutions.

2181-2675/© 2024 in XALQARO TADQIQOT LLC.

DOI: **10.5281/zenodo.11084589**

This is an open access article under the Attribution 4.0 International(CC BY 4.0) license (<https://creativecommons.org/licenses/by/4.0/deed.ru>)

---

<sup>1</sup> Student of the Faculty of Uzbek Philology, Termiz State University, Uzbekistan

## NUTQNING SOFLIGINI BUZUVCHI OMILLAR

### KALIT SO‘ZLAR/ КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА:

Varvarizmlar, jargonlar, vulgarizmlar, dialektizmlar, konselyarizmlar, parazit so‘zlar, nutq sofligi

### ANNOTATSIYA/AHHOTACIYA

Bugungi globallashuv jarayonida, yoshlar o‘rtasida chet tillarini o‘rganishga bo‘lgan talab ortib bormoqda. Bu esa albatta ona tilimizga o‘z ta‘sir kuchini ko‘rsatmasdan qo‘ymaydi. Ya‘ni ko‘cha-ko‘yda, ish jarayonlarida, o‘quv dargohlarida bu o‘zini yaqqol namoyon qiladi.

Inson tabiati atrof-muhitni o‘rganish va barcha voqea-hodisalarga qiziqish bilan sug‘orilgan. Har bir jarayonga o‘z qarashlari, emotsiyalari nuqtayi nazardan yondashadi. Aloqa-aralashuv vositasi, ya‘ni o‘z fikr doirasidan kelib chiqqan holatda tildan foydalanadi. Bunda har bir individning nutqi o‘zgacha, individual shakl va holatda yuzaga chiqadi.

Inson zoti yer yuzidagi ongli, fikr doirasiga egaligi va odob-axloq doirasini anglaydigan yagona jonzod. Shunday ekan, inson o‘z nutqi ustida ishlashi vaholanki so‘zlarni o‘z o‘rnida qo‘llay olishi, tinglovchining holatiga va albatta nutq sharoitiga e‘tibor qaratishi darkor. Avvalo, bizning birinchi yo‘l qo‘yadigan xatoyimiz shuki, nutqning kommunikativ qoidalarga rioya qilish faqatgina diplomatik aloqalarda, idoraviy yig‘inlarda kerak deb o‘ylashimizdir. Biz bu xatolar boshlanmasini ona tilimizga bo‘lgan hurmat-e‘tibormizni mustahkamlash, uning jozibasini, mazmun-mohiyatini ochib berish bilangina yo‘q qilishimiz mumkin. Shuningdek, o‘z til imkoniyatlarimizdan to‘g‘ri va samarali foydalanishimiz zarur. Tilning vazifasi jamiyat taraqqiyoti bilan bog‘liq va uning ijtimoiy mohiyatidan kelib chiqadi. Nutq til taraqqiyotining ma‘lum bir davrida asta- sekin shakllanadi va o‘zgarishlarga uchraydi<sup>2</sup>.

Avvalambor, nutqimizning chiroyli va samimiy bo‘lishi uchun uning sofligini yuqotmasligimiz, nutqimizni adabiy til me‘yorlariga amal qilgan holatda ishlatishimiz to‘g‘ridir. Kundalik hayotimizda uchrab turadigan o‘zbek tiliga begona bo‘lgan unsurlar, axloq-odob me‘yorlaridan chetga chiqish holatlari nutqning

1. Jargonlar;
2. Vulgarizmlar;
3. Varvarizmlar;
4. Parazit so‘zlar;
5. Konselyarizmlar;
6. Kontekstda so‘z va qo‘shimchalarning noto‘g‘ri qo‘llanishi<sup>3</sup>;

Nutqning sofligini buzuvchi birinchi omil – bu jargonlar. Jargonlar biron bir guruhga oid bo‘lgan va bu “so‘z”larni faqatgina o‘sha guruh vakillari tushuna oladigan terminlar majmuasi. Masalan pul so‘zini oladigan bo‘lsak, o‘g‘rilar tilida **mullajiring**, qassoblar

<sup>2</sup> S. Sultonsaidova, O‘. Sharipova, „O‘zbek tili stilistikasi“. Toshkent. : 2009

<sup>3</sup> Abdulhakimovna X. M., Ozoda L. Lingvistikada orfografik tamoyillar va tahlillar //Qo‘qon universiteti xabarnomasi. – 2022. – T. 5. – C. 104-106.

orasida **soqqa**, insonlar muloqotida esa **kal bobo** tarzida ishlatilganini guvohi bo'lamiz. Shu bilan birga yoshlar o'rtasida **ketdim** leksikasi o'rnida **sirpandim**, **quyonni rasmini chizdim** shakllari ham mavjud.

Vulgarizmlar toifasiga kiruvchi so'zlar – bu adabiy tilga xos bo'lmagan **qo'pol**, **dag'al**, **so'kish**, **qarg'ish**, **haqoratli** so'zlardan foydalanishdir. Ushbu so'zlardan foydalanish nafaqat nutqimizning sofligini buzadigan holatlarga balki qonun buzish oqibatlariga ham olib keladi. Vulgarizmlarni qo'llash holatlari asosan so'zlashuv jarayonlarida ko'p uchraydi ammo badiiy asarlarda bu so'zlardan foydalanish uslubiy vosita sifatida belgilanib, asardagi qahramonlar holatini ochib berish vazifasini bajaradi<sup>4</sup>. Masalan Urish mana bunaqa bo'ladi, deb qoq jag'iga chunonam musht tushirdim-ki, Rais pufakdek uchib ketdi. Besh qadamcha nariga – ariq ichiga borib tushdi. Pishiq ekan, **xunasa!** (O'tkir Hoshimov. "Ikki karra ikki besh")<sup>5</sup>.

Varvarizmlarga oid bo'lgan leksemalar – bu chetdan kirib kelgan va hozirgi kunda ham begonaligi bilinib turadigan so'z va iboralardir. Ushbu so'zlar ham ko'proq so'zlashuv uslubiga xos shakl bo'lib, nutqning sofliligiga zarar yetkazadi. Ko'cha-ko'yda, o'quv dargohlarida ham bu hodisaga deyarli har kuni duch kelamiz. O'zimizning tilimizda muqobil variantlari bo'la turib, chetdan kirib kelyotgan so'zlardan foydalanish menimcha ona tilimizga bo'lgan hurmatsizlik belgisidir. Rus tilidan kirgan varvarizmlar: **uje**, **tochna**, **bratan (bratishka)**, **zemlyak**, **paxan**, **pashti** kabi so'larni aytishimiz va achinarlisi bu ro'yxatni hali ancha davom ettirishimiz mumkin.

Insonlar nutqida ko'p uchraydigan ortiqcha takrorlar, tutilib, duduqlanib gapirish holatlari nutqqa salbiy ta'sir ko'rsatadi. So'zlovchi tinglovchini tez bezdirib qo'yishi va eng asosiysi nutq mazmuniga ta'sir ko'rsatish etishi mumkin. Misol tariqasida: **xo'p**, **o'sha**, **anovi**, **eh**, **uf**, **aytgancha**, **masalan**, **nima edi** so'zlarni keltiramiz. Bu holatni yuqotish uchun ko'proq mutolaa bilan shug'ullanish va she'rlarni ifodali o'qishni mashq qilish lozim.

Konselyarizmlar rasmiy nutq jarayonida, yozishmalarda qo'llaniladigan so'z va so'z birikmalari sanaladi. Ammo bu holatlarning kundalik hayotimizda ham ishlatilishi kuzatiladi va nutq jarayonida g'alizlikni yuzaga keltiradi.

Kontekstda so'z va qo'shimchalarning noto'g'ri qo'llanishi bilan bog'liq vaziyatlar hozirgi kunda ko'plab uchrab turadi. Bu hodisa ko'proq so'zlashuv uslubida va muloqot jarayonida kuzatiladi. Masalan: **men uydaman - men uygaman**, **kitobning varag'i - kitobni varag'i** kabilar misol bo'la oladi. Bir qaraganda sezilmaydigan ushbu qo'shimchalar vazifa jihatidan tubdan farq qiladi. Bundan tashqari sinonim so'zlarni qo'llash bilan ham xatoliklar uchrab turadi ya'ni **yig'lamoq** so'zini oladigan bo'lsak, ushbu so'z dominant hisoblanadi. Lekin u jimgina **o'kirardi** gapini oladigan bo'lsak, bu yerda sinonim qo'llash bilan bog'liq g'alizlik yuzaga keladi va so'zlarni almashtirib qo'llanilgan holda nutq sofligiga putur yetkazildi.

<sup>4</sup> Jamolxonov H. Hozirgi o'zbek adabiy tili. Toshkent, 2005

<sup>5</sup> O'tkir Hoshimov "Ikki karra ikki besh" //roman/ Toshkent, 2007

Xulosa o'rnida aytishimiz mumkinki, adabiy til me'yorlaridan chetga chiqmasdan, o'z tilmizning ichki qatlamlaridan foydalangan holda, tilimizga putur yetkazadigan har xil omillarni yuqotishda o'zimizda kuch topishimiz zarur. Shuningdek Akademik V. V. Vingoradov ta'kidlaganidek, har bir milliy til stilistikasini alohida fan sifatida ham nazariy, ham amaliy jihatdan o'rganishning qanchalik muhimligi bugungi kunda hech kimda shubha tug'dirmaydi u tilni tadqiq etishning o'ziga xos cho'qqisi, milliy nutqiy madaniyat taraqqiyotining nazariy asosidir<sup>6</sup>.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. R. Sayfullayeva, B. Mengliyev, M. Abuzalova. Hozirgi o'zbek adabiy tili, T. : G'afur G'ulom nashriyoti, 2006.
2. A. Ortiqov. Nutq madaniyati va notiqlik san'ati T. : G'afur G'ulom nashriyoti, 2002.
3. Qo'ng'urov R., Begmatov E., Tojiyev Y. O. Nutq madaniyati va uslubiyat asoslari //Toshkent: O'qituvchi. – 1992. – S. 55-56.
4. Ушакова Д. Н. Толковый словарь русского языка //М.:«Гос. ин-т Сов. энцикл.», ОГИЗ., Гос. изд-во иностр. и нац. слов. – 1935. – Т. 1940. – С. 538.
5. Abduraxmonova Y. O'zbek tilshunosligining dolzarb muammolari //Spain" problems and prospects for the implementation of interdisciplinary research". – 2023. – Т. 14. – №. 1.
6. Ibrohimov I. Nutq madaniyati va adabiy talaffuz haqida. –Т. :Fan 1972.
7. Karimov. S. O'zbek tilining funksional stilistikasi – Samarqand: SamDU nashri, 2012.
8. Qo'ng'urov. R. O'zbek tili stilistikasidan ocherklar. – Samarqand 1975.
9. Xalilova M. O'zbek tili stilistikasi asoslari //Farg'ona. – 2009.
10. Sultonsaidova S., Sharipova O. O'zbek tili stilistikasi //Yurist media markazi. – 2009.

---

<sup>6</sup> Вингородаов В. В. Предисловие . Ефимов А. И. Стилистика русского языка. -М., 1969, с. 5-6.